

**TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLARINING SAMARALI FOYDALANISH
KO'RSATKICHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILINI
TAKOMILLASHTIRISHNING MOHIYATI**

Samadova Nilufar

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklarida aktivlardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda aktivlarning rentabelligi, likvidligi, risk darajasi va foydalilik ko'rsatkichlari kabi zamonaviy moliyaviy tahlil usullari asosida aktivlarning tuzilishi hamda ularning boshqaruv samaradorligi o'r ganilgan. "AT «Hamkorbank»" ATB misolida markaziy va filial darajasida aktivlardan foydalanish dinamikasi tahlil qilinib, ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan.

Tadqiqot natijalari tijorat banklarida aktivlardan foydalanishni samarali boshqarish, ularni diversifikatsiya qilish va raqamlashtirish bo'yicha aniq amaliy tavsiyalar berishga xizmat qiladi. Xususan, aktivlarning daromadlilik va likvidlik ko'rsatkichlarini muvozanatlash, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda aktivlardan foydalanishda raqamli tahlil mexanizmlarini joriy etish kabi yechimlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, bank aktivlari, aktivlardan foydalanish samaradorligi, likvidlik, rentabellik, risklarni boshqarish, raqamli tahlil, AT «Hamkorbank».

ANNOTATION

This article the efficiency indicators of the use of assets in commercial banks of Uzbekistan and develops scientifically grounded proposals for their improvement. The study examines the structure of assets and the efficiency of their management based on modern financial analysis methods such as profitability, liquidity, risk level, and utility indicators. Using the example of "AT «Hamkorbank» JSCB, the dynamics of asset utilization at both central and branch levels were analyzed, and the factors affecting their efficiency were identified.

The research results serve to provide practical recommendations for effective management, diversification, and digitalization of asset utilization in commercial banks. In particular, solutions such as balancing profitability and liquidity indicators, improving the risk management system, and introducing digital analytical mechanisms in asset management have been proposed.

Keywords: commercial banks, bank assets, efficiency of asset utilization, liquidity, profitability, risk management, digital analysis, AT «Hamkorbank».

Kirish

Bank aktivlaridan samarali foydalanish nafaqat tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, balki butun iqtisodiyotning investitsiya salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, bank-moliya tizimini isloh qilish hamda raqamli texnologiyalar asosida yangi moliyaviy mahsulotlar joriy etish borasida keng ko'la So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektorni rivojlantirish va moliyaviy tartibga solish tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da bank tizimida samaradorlik, shaffoflik va raqobatbardoshlikni oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.¹

Bank aktivlarining samarali foydalanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish O'zbekiston bank sektorining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi.

Mavzuning dolzarbliги

Tijorat banklarining aktivlari tarkibi yildan-yilga murakkablashib bormoqda. Kredit portfeli, investitsiyalar, likvid mablag'lar va boshqa aktiv turlari hajmining ortishi bilan birga, ularni boshqarish xarajatlari ham o'smoqda. Xizmat turlari kengaygani sari operatsion va boshqaruv xarajatlarining oshishi bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu bois aktivlardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari – aktivlarning rentabelligi (ROA), foyda bilan ta'minlangan aktivlar ulushi, aktivlar aylanish tezligi, likvid aktivlar ulushi kabi indikatorlarni faoliyat turlari bo'yicha chuqur tahlil qilish zarur.

Bu tahlil jarayonida, aniq natijalarga erishish uchun, Activity-Based Costing (ABC) modeli qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Ushbu model xarajatlarni bevosita ularni yuzaga keltirgan bank faoliyatlariga taqsimlab, qaysi yo'nalishlarda aktivlar yuqori rentabellik bilan ishlayotganini, qaysi yo'nalishlarda esa samaradorlik pastligini aniqlash imkonini beradi. Natijada bank boshqaruvi aktivlardan maksimal darajada foyda olish, resurslarni optimal taqsimlash va past samarali yo'nalishlarni qisqartirish bo'yicha asosli strategik qarorlar qabul qilishi mumkin bo'ladi².

Tijorat banklarida aktivlarni boshqarish va ularning samarali foydalanilishini nazorat qilish tizimi bank faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega. Ayniqsa, bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini to'g'ri baholash, aktivlar tarkibi va tuzilmasini chuqur tahlil qilish orqali

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022). "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmon, PF-60, 28.01.2022. <https://lex.uz/docs/5841063>

² Khadivar, M. (2024). Application of Activity-Based Costing in Commercial Banks: A Case Study in Service Cost Allocation. SSRN. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4710786

daromadlilikni oshirish va risklarni kamaytirish mumkin. Mazkur magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi – O‘zbekistondagi tijorat banklari misolida aktivlardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari tahlilining amaldagi holatini o‘rganish hamda uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Bank aktivlarining holati uning faoliyati davomida o‘zgarib turadi. Bank aktivlarining holati ijobjiy yoki salbiy tamonga o‘zgarishi mumkin. Bank aktivlarining qanday o‘zgarishi aktivlarni boshqarishga va to‘g‘ri yo‘naltirishga bog‘liq. Shuning uchun ham bank aktivlarining holatini muntazam ravishda o‘rganib, ularning o‘zgarishini tahlil qilib borish lozim

Bank aktivlarining asosiy qismini, odatda mijozlarga beriladigan kreditlar va banklararo kreditlar tashkil etadi. Bank amaliyotida bank krediti, bank oladigan daromadlarning asosiy qismini ta’minlaydi. Bank krediti iqtisodiyotda kredit munosabatlarining keng tarqalgan shakli bo‘lib, bunda pul mablag‘lari kredit obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Bank aktivlari birinchi navbatda qisqa muddatli kelajakni nazarda tutadi va har kungi bank balansini boshqarish ishi bilan bog‘liqdir. U bank faoliyatida daromadni oshirish va risk larni chegaralashga yo‘naltirilgan.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, barqaror iqtisodiy o’sish orqali aholi farovonligini ta’minalash yo‘nalishi doirasida yalpi ichki mahsulot o’sish sur’ati 6 foizdan kam bo‘lmagan darajada ,investitsiya esa yalpi ichki mahsulotga nisbatan kamida 30% ,bo‘lish choralar korilmoqda. Buning zamirida banklarning iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik rolini yanada oshirish ,aktivlar bilan bog‘liq amaliyotlar hajmini doimiy ravishda ko‘paytirib borish kabi masalalar yotadi. Hozirda respublikamiz tijorat banklari tomonidan aktivlarini baholash va boshqarish ,aktiv operatsiyalarning sifat darjasasi va rentabelligini oshirish uchun muhim zaruriyat hisoblanadi. Chunki nafaqat bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida ,balki rivojlangan davlatlarda ham tijorat banklari faoliyati ,ularni iqtisodiy tarmoqlarni ,real hamda moliyaviy sektor faoliyatini rivojlantirish uchun moliyaviy jihatdan qo’llab-quvvatlovchi lokomativ funksiyasi mavjudlilgini tan olingan. Shuning uchun tijorat banklari daromad olish maqsadida aktiv operatsiyalarga kirishi uchun avvalo ularni boshqarish amaliyotini takomillashtirib borishlari, likvidliligi,risklik,sifatlilik,diversifikatsiyalashgan kabi muhim bevosita ta’sir etuvchi omillarga e’tibor berishlari zarur. Bank aktivlarining sifati, aktivlarning maqsadga muvofi q tuzilishiga, likvidligi, aktiv Daromad keltiruvchi aktivlarning asosiy daromad tarkibi foizli daromadlardir. Foizli daromad manbayi kreditlarni bir soha yoki tarmoqqa emas, balki bir nechta tarmoqqa joylashtirish kerak. Banklarda daromadlar tarkibini ko‘paytirish uchun bank daromad keltiruvchi xizmatlar turini ko‘paytirishi kerak. Xalqaro amaliyotda shu jumladan O‘zbekistonda ham tijorat banklarining balansi asosan 2tarkibiy tuzilmadan:aktiv va passivdan iborat.

Tijorat banklarida aktivlardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va nazorat qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni shakllantirish bilan birga, ushbu sohada amaliy yechimlarni taklif etishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

- Tijorat banklarida aktivlardan foydalanish samaradorligini baholashning zamonaviy metodlari (ROA, ROE, NIM, aktivlar aylanish tezligi, Risk-Adjusted Performance Metrics) milliy amaliyot nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqildi va ilmiy jihatdan asoslandi;

- O‘zbekistondagi bank tizimiga mos ravishda aktivlar boshqaruvi va ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini nazorat qilishning institutsional va funksional modellari ishlab chiqildi;

- Mavjud xorijiy ilmiy ishlar asosida aktivlardan foydalanish samaradorligi nazariy asoslari lokal sharoitda qayta tahlil qilindi;

- Aktivlar tarkibi va tuzilishini tahlil qilishda Risk-Adjusted Performance yondashuvi hamda aktivlarning sektorlar bo‘yicha diversifikatsiyasi imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslandi, bu esa risk va rentabellik muvozanatini ta’minlashda yangicha metod sifatida taklif etildi

ADABIYOTLAR SHARHI

Bank xarajatlari — bu tijorat banking moliyaviy va operatsion faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan mablag‘ sarflari majmuasidir. Ushbu xarajatlar tarkibiga xodimlarga to‘lanadigan ish haqi va unga bog‘liq ijtimoiy ajratmalar, jalb qilingan mablag‘lar bo‘yicha foiz to‘lovleri, axborot texnologiyalari uchun xizmat haqlari, binolar va uskunalarini ijaraga olish xarajatlari, yuridik va autsorsing xizmatlari, shuningdek, hujjatlashtirish, texnik qo‘llab-quvvatlash va boshqa ma’muriy xarajatlar kiradi. Shu tarzda, bank xarajatlarini tizimli tahlil qilish nafaqat moliyaviy intizomni mustahkamlaydi, balki aktivlar rentabelligini oshirish, risklarni kamaytirish va bankning umumiy samaradorligini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi³. Frederic S. Mishkin (Columbia University, AQSh) o‘zining “The Economics of Money, Banking, and Financial Markets” asarida bank aktivlari tarkibini samarali boshqarish bankning likvidligi, rentabelligi va risk profilini muvozanatlashtirishda hal qiluvchi omil ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, aktivlarni optimal taqsimlash (asset allocation) orqali bankning sof foiz marjasni (NIM) va umumiy foydasi sezilarli darajada oshirilishi mumkin. Anthony Saunders (New York University) va Marcia Millon Cornett “Financial Institutions Management” asarida bank aktivlarini boshqarishda “risk-return trade-off” konsepsiyasiga urg‘u beradi. Ularning yondashuvida aktivlar tarkibini tahlil qilishda

³ Drury, C. Management and Cost Accounting. – 8th ed. – London: Cengage Learning, 2015. – 832 s.

kredit portfeli sifati, investitsiya qimmatli qog‘ozlarining diversifikatsiyasi va likvid aktivlar ulushi asosiy ko‘rsatkichlar sifatida olinadi.

O‘zbekiston bank tizimida 2020–2024 yillar davomida amalga oshirilgan moliyaviy islohotlar (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni, 2020-yil 24-noyabrdagi PQ-4886-son qarori) bank aktivlarini samarali boshqarish bo‘yicha yangi talablar qo‘ydi. Mazkur hujjatlar asosida tijorat banklari aktivlarining diversifikatsiyasi, risklarni boshqarish tizimi va rentabellikni oshirish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar belgilandi. Shu sababli, bank aktivlari samaradorligini nazariy asoslarda chuqur o‘rganish va amaliy tahlil usullarini takomillashtirish milliy bank tizimi barqarorligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

Bank aktivlaridan foydalanish ko‘rsatkichlarini aniq va tizimli baholashda Kaplan va Cooper tomonidan ishlab chiqilgan Activity-Based Costing (ABC) modeli keng qo‘llaniladi. Mazkur yondashuv aktivlarga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarni turli faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlash, aktivlar rentabelligiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish va resurslardan foydalanish samaradorligini optimallashtirish imkonini beradi. Ilmiy manbalarda bank aktivlari samaradorligi tushunchasi keng iqtisodiy mazmunga ega bo‘lib, u faqat moliyaviy natijalarini emas, balki bankning bozor qiymati, raqobatbardoshligi va uzoq muddatli barqarorligini ham belgilaydi. Shu bois, bank aktivlaridan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarini ilmiy asosda tahlil qilish va strategik boshqarish bank faoliyatining moliyaviy barqarorligi, risklarni kamaytirish va xizmat sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Natijada, bank aktivlari samaradorligini tahlil qilish iqtisodiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda va u O‘zbekiston bank tizimida ham amaliy ahamiyatini tobora oshirmoqda.

Kredit portfeli bank aktivlari tarkibida eng yirik ulushga ega bo‘lib, uning sifati bankning umumiy moliyaviy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. X. Abdullayev (2020) tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, yuqori darajadagi non-performing loans (NPL) ko‘rsatkichi aktivlardan foydalanish samaradorligini keskin pasaytiradi. Shu bois kredit risklarini diversifikasiya qilish, garov ta’mnoti sifatini oshirish va mijozlarni kreditga layoqatlilik bo‘yicha chuqur tahlil qilish zarur. Bank investitsiya portfelining sifat va tuzilishi, Fabozzi (2015) fikriga ko‘ra, risk va rentabellik o‘rtasidagi optimal nisbatni ta’minlashi kerak.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tijorat banklari faoliyatida bank aktivlaridan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari tahlilini takomillashtirish ilmiy asoslarini chuqur o‘rganish maqsad qilingan. Ushbu vazifani amalga oshirishda aralash tadqiqot dizayni (mixed-method design) qo‘llanilishi rejalashtirilmoxda. Mazkur yondashuv nazariy va empirik tadqiqot usullarini uyg‘unlashtirgan holda, aktivlardan foydalanish samaradorligini

kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Bu uslub xalqaro hamda mahalliy tajribalarda o‘zining yuqori natijadorligini ko‘rsatgan.

Tahlil va natijalar


Tijorat banklari faoliyatida aktivlardan samarali foydalanish va ularni muntazam nazorat qilish bankning moliyaviy barqarorligi, raqobatbardoshligi hamda rentabelligini ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi. Aktivlar tarkibi va dinamikasini chuqur tahlil qilish orqali bank rahbariyati qaysi yo‘nalishlarda aktivlardan foydalanish darajasi yuqori yoki past ekanligini aniqlab, optimal boshqaruvaqarorlarini qabul qilishi mumkin.

AT «Hamkorbank»ning aktivlar turlari bo‘yicha bank aktivlari dinamikasi (2021–2024 yy., mlrd so‘mda).

Nº	Aktivlar nomi	2021	2022	2023	2024	2025 (III-chorak)
1	Kassadagi naqd pul va boshqa to‘lov hujjatlari	812, 54	1 052, 11	1 358, 73	1 754, 92	1 983, 68
2	Markaziy bankdagi mablag‘lar	643, 27	802, 14	1 094, 53	1 267, 54	1 445, 05
3	Boshqa banklardan olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar, sof	978, 36	1 228, 88	2 741, 88	3 986, 17	4 558, 88
4	Qimmatli qog‘ozlar va ularga qilingan investitsiyalar, sof	524, 99	671, 12	1 012, 45	1 540, 99	1 718, 69
5	Qimmatbaho metallar, sof	31, 23	43, 19	17, 54	0	0
6	Investitsiyalar, sof	119, 35	147, 23	165, 11	198, 73	214, 75
7	REPO bo‘yicha sotib olingan qimmatli qog‘ozlar, sof	112, 45	126, 78	143, 56	176, 53	194, 81
8	Kredit va lizing operatsiyalari, sof	8 965, 54	10 987, 88	14 321, 55	18 951, 24	20 400, 38
9	Asosiy vositalar, sof	365, 11	416, 33	498, 24	562, 98	587, 37
10	Boshqa aktivlar, sof	720, 35	846, 01	945, 33	871, 23	943, 77
Jami aktivlar		13273, 21	16021, 69	19823, 86	22497, 34	32 138, 56

2021 yilda jami aktivlar 13,273.21 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2025 yilga kelib 43,158.66 mlrd so‘mga yetgan. Bu davr mobaynida bank aktivlari qariyb 3,25 barobarga o‘sganini ko‘rsatadi. Bu esa AT «Hamkorbank»ning moliyaviy salohiyati, bozor ulushi va investitsion imkoniyatlarining sezilarli darajada kengayganidan dalolat beradi. Aktivlarning eng katta qismini kredit va lizing operatsiyalari egallagan. Ularning hajmi 2021 yildagi 8,965.54 mlrd so‘mdan 2025 yilda 29,408.87 mlrd so‘mga yetib, jami aktivlarning 68–70% ini tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich bankning asosiy daromad manbai kreditlash ekanini va kredit portfelining kengayishi hisobiga aktivlar o‘sayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, boshqa banklardan olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar hajmi ham sezilarli oshgan (2021 yilda 978.36 mlrd so‘mdan 2025

yilda 4,558.05 mlrd so‘mga). Bu esa banklararo moliya aloqalarining faollashganini bildiradi. Kassadagi naqd pul va boshqa to‘lov hujjatlari 2021 yildagi 812.54 mlrd so‘mdan 2025 yilda 1,983.68 mlrd so‘mga yetgan bo‘lsa-da, ularning jami aktivlardagi ulushi nisbatan past darajada qolmoqda (~5%). Bu shuni anglatadiki, bank mablag‘larni ko‘proq daromad keltiruvchi faoliyat (kredit va investitsiyalar)ga yo‘naltirmoqda, biroq likvidlikni ta’minlash ham yetarli darajada saqlab qolingen. Investitsiyalar hajmi 2021 yildagi 119.35 mlrd so‘mdan 2025 yilda 274.15 mlrd so‘mg. Bu bankning uzoq muddatli daromad keltiruvchi moliyaviy aktivlarga ham e’tibor qaratayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan mablag‘lar (jumladan REPO bitimlari) o‘rtacha hajmda qolgan bo‘lsa-da, ularning barqaror o‘sishi kuzatilmoxda. 2021 yilda 365.11 mlrd so‘mni tashkil qilgan asosiy vositalar 2025 yilga kelib 987.50 mlrd so‘mga yetgan. Bu bank infratuzilmasi va texnologik bazasini kengaytirishga katta mablag‘ yo‘naltirilayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, filiallar soni va zamonaviy xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi kengaygan bo‘lishi mumkin. Jadval shuni ko‘rsatadiki, AT «Hamkorbank»ning aktivlari kreditlashga yo‘naltirilgan tijorat banki sifatida shakllangana o‘sib, 2,3 barobarga ko‘paygan. 2021–2025 yillarda AT «Hamkorbank» aktivlari sezilarli darajada oshgan, aktivlar tarkibi asosan kreditlashga yo‘naltirilgan, biroq investitsiya va infratuzilma yo‘nalishlarida ham ijobjiy o‘sish kuzatilmoxda. Bu esa bankning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.



AT «Hamkorbank»ning 2021–2025 yillar davomida umumiyligi aktivlari hajmi barqaror va izchil o‘sish tendensiyasini namoyon qilgan. Diagrammalarda ham aktivlar tarkibi bo‘yicha mutlaq ko‘rsatkichlar, ham yillik o’sish sur’atlari foizlarda tasvirlangan. Barqaror o‘sish tendensiyasi. Umumiyligi aktivlar hajmi yilma-yil oshib borgan va 2021 yildan 2025 yilgacha sezilarli miqdorda kengaygan. Bu tendensiya

bankning iqtisodiy salohiyati, moliyaviy resurslarni jalg qilish va ularni samarali joylashtirish qobiliyatining ortib borayotganini ko'rsatadi. Yillik o'sish sur'atlari tahlili. Diagrammada ko'rsatilganidek, ayrim yillarda o'sish sur'ati yuqoriroq bo'lsa, keyingi yillarda biroz pasayish kuzatilgan.

Xulosa va takliflar

Tijorat banklarida aktivlardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini takomillashtirish” mavzusidagi tadqiqot maqsadi — bank aktivlarini boshqarishda samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi nazariy va amaliy yondashuvlarni tahlil qilish, zamonaviy usullarni (ALM modeli, RBAM yondashuvi, KPI tizimi va byudjetlashtirish) joriy etish imkoniyatlarini baholash va O'zbekiston bank sektori, xususan, Hamkorbank misolida amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.

Tijorat banklarning qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan aktiv operatsiyalarining samaradorligini oshirish lozim. Buning uchun, birinchidan, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning bank aktivlarining umuhajmidagi salmog'ini oshirish lozim; ikkinchidan, bankda emitentlarning moliyaviy holatini baholash tizimini takomillashtirish lozim. Respublikamiz tijorat banklarining aktiv operatsiyalarining samaradorligini ta'minlash maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir: Mamlakat tijorat banklarida cassali aktivlarni yirik miqdorda to'planib qolishiga yo'l quymaslik choralarini ishlab chiqish lozim. Buning uchun, avvalo, tijorat banklarining depozit bazasi tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlari salmog'ini oshirish lozim. Tijorat banklarida mijozning kredit to'loviga layoqatlilagini baholash tizimini takomillashtirish lozim. Bu bank aktivlarini samarali boshqarish hamda ular sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarida aktivlar samaradorligini oshirish milliy iqtisodiyotimizda zamonaviy bank talablariga to'liq mos keladigan bank tizimini shakllantirish, bankning ichki va xalqaro moliyaviy bozorlarda raqobatbardoshligini mustahkamlashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston–2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-son Farmoni. 2. O_zbekiston Respublikasi —Banklar va bank faoliyati to_g_risidal gi Qonuni (yangi tahriri), O_RQ-580, 2019 yil 5 noyabr.

3. Shirinov, Sh., Abduxoliqurov, A. Bank ishi va moliyaviy menejment. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022. — 450 b.

4. Bozorova, M. Tijorat banklari faoliyatini boshqarish asoslari. — Toshkent: TDIU nashriyoti, 2021. — 380 b.

5. Mishkin, F. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. 11th ed. — Boston: Pearson, 2021. — 720 p.

- 6.Mishkin, F.S. (2019). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. 12th ed. New York: Pearson.
- 7.Rose, P.S., & Hudgins, S.C. (2013). Bank Management and Financial Services. 9th ed. McGraw-Hill.
- 8.Koch, T.W., & MacDonald, S.S. (2014). Bank Management. 8th ed. Cengage Learning.
- 9.Central Bank of Uzbekistan. (2023). Banking sector indicators. Available at: <https://cbu.uz>
- 10.Ministry of Finance of Uzbekistan. (2024). State Budget Execution Report. Available at: <https://www.mf.uz>
- 11.Ministry of Justice of Uzbekistan. (2022). Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. Available at: <https://lex.uz>
- 12 .World Bank. Uzbekistan Financial Sector Reform Project. Implementation Document . – Washington D.C.: The World Bank, 2022. – 54 p.